



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA QOIDALARI VA
ME’YORLARI, GIGIYENA NORMATIVLARI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM MUASSASALARIDA
JISMONIY TARBIYA, SPORT JIHOZLARI VA INVENTARLARIGA
QO‘YILADIGAN GIGIYENIK TALABLAR**

**O‘zbekiston Respublikasining
0275-09- sonli SanQvaM**

Rasmiy nashr

Toshkent 2009

ISHLAB CHIQUVCHILAR RO'YXATI

Tuzuvchilar:

O'zR SSV Toshkent tibbiyot akademiyasi	t.f.n., dots. N.J.Ermatov, t.f.d., prof. G. I. Shayxova
O'zR SSV Respublika davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi	BvaO'G bo'limi mudiri N.S. Salixova, BvaO'G bo'limi sanitariya vrachi R.Yuldasheva
O'zR Madaniyat va sport ishlari vazirligi Kompyuterlashtirish va sertifikatlashtirish markazi	Direktor o'rinbosari X.R.Dadamuxamedov
O'zR Xalq ta'limi vazirligi	Bolalar sporti boshqarmasi boshlig'i A. Babanov.

Taqrizchilar:

TTA Umumiy va radiatsion gigiyena kafedrasi mudiri	t.f.d., prof. D.A. Zaritdinov
O'zbekiston Respublikasi MOQ prezidenti maslahatchisi	R.I. Itskov

Ushbu SanQvaMni tuzishda quyidagilardan foydalanilgan:

1. O'zbekiston Respublikasining «Davlat sanitariya nazorati to'g'risida»gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 5-yanvardagi PQ-1029-sonli» 2012-yilda London shahrida (Buyuk Britaniya) o'tkaziladigan XXX yozgi Olimpiada va XIV Paralimpiada o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini tayyorlash to'g'risida»gi qarori.
5. Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 29-avgustdagi 410-sonli «O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarori.
6. Sport va jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish inshootlarini sport jihozlari bilan ta'minlash jadvali.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat sanitariya nazorati to‘g‘risida”gi Qonunidan ko‘chirma

Sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari - hayotiy muhit omillarining inson uchun xavfsizligi yoki zararsizligi mezonlarini belgilaydigan sanitariya hujjatlaridir.

Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlashning asosiy tamoyillari mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, ayrim shaxslar tomonidan sanitariya normalari, gigiyena normativlariga rioya qilmaslik va sanitariya-epidemiya qarshi chora-tadbirlar o'tkazmaslik natijasida aholi salomatligiga va atrof-muhitga yetkazilgan zararining o'rnini qoplashdan iborat (2-modda).

Mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalarning rahbarlari va ayrim shaxslar obyektlarni loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish, korxonalarni texnik jihatdan qayta jihozlash va ishga tushirishda sanitariya normalari, qoidalari va gigiyena normativlariga rioya etishlari shart (9-modda).

Mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va birlashmalar umumta'lim muassasalari hamda korxonalarda sanitariya me'yorlari, qoidalari va gigiyena normativlariga rioya etilishini ta'minlashlari shart (17-modda).

Sanitariya qoidalarini buzgan mansabdor shaxslar intizomiy, ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortilishlari mumkin (29-modda).

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu uslubiy ko'rsatmalar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ilgari tasdiqlangan, aholiga markazlashtirilgan xo'jalik-ichimlik suv ta'minoti tizimlari orqali yetkazib beriladigan ichimlik suvi sifatining gigiyenik mezonlari va nazoratiga oid me'yoriy hujjatlarni to'ldiradi. Bunda ichimlik suvining standart sifatiga muayyan shartlarga rioya qilingan holda erishiladi: suv ta'minoti manbasini to'g'ri tanlash, uning tegishli sanitariya muhofazasi, suvni tozalash va zararsizlantirishning samarali usullari, aholining xo'jalik-ichimlik suv ta'minoti tizimlaridagi vodoprovod suvi sifatini muntazam nazorat qilish.

1.2. O'zDST 950:2000 «Ichimlik suvi. Gigiyenik talablar va sifat nazorati» xo'jalik-ichimlik suv ta'minotining markazlashtirilgan tizimlari, shuningdek bir vaqtning o'zida xo'jalik-ichimlik va texnik ehtiyojlar uchun suv yetkazib beruvchi markazlashtirilgan suv ta'minoti tizimlari orqali yetkazib beriladigan ichimlik suviga nisbatan qo'llaniladi; ichimlik suvi sifatining nazorat qilinadigan ko'rsatkichlari tarkibini, ichimlik suvini ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berish jarayonida ushbu ko'rsatkichlarning belgilangan talablarga muvofiqligini nazorat qilish tartibi va qoidalarini belgilaydi.

1.3. Uslubiy ko'rsatmalar DSENM hududiy markazlari xodimlari, tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalari va shifokorlar malakasini oshirish instituti tinglovchilari, shuningdek respublika aholisini suv bilan ta'minlash masalalari bilan shug'ullanuvchi vazirlik va idoralar mutaxassislari uchun mo'ljallangan.

2. VODOPROVOD SUVI SIFATIGA QO'YILADIGAN ASOSIY GIGIYENIK TALABLAR

2.1. Ichimlik (vodoprovod) suvi epidemiologik jihatdan xavfsiz, kimyoviy tarkibi bo'yicha zararsiz, yoqimli organoleptik xususiyatlarga ega bo'lishi va radiatsiya nuqtai nazaridan xavf tug'dirmasligi lozim.

Ushbu talablarning bajarilishi ichimlik suvi sifati ko'rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan me'yorlarga muvofiq bo'lganda ta'minlanadi va qo'llanishga ruxsat etilgan uslublar asosida o'tkazilgan nazorat natijalari bo'yicha tekshiriladi.

2.2. Suv ta'minoti manbaidagi suvning 1-jadvalda ko'rsatilmagan, inson salomatligi uchun xavfli moddalar bilan ifloslanish ehtimoli haqida ma'lumotlar mavjud bo'lsa, DSENM hududiy markazlari qarorlari asosida ushbu moddalarning konsentratsiyalarini aniqlash va aniqlangan moddalarning ruxsat etilgan chegaraviy konsentratsiyalari (REChK) doirasida zararsizligini baholash maqsadida qo'shimcha sifat nazorati o'rnatiladi.

2.3. Ichimlik suvining organoleptik xususiyatlariga ta'sir qilmaydigan ko'rsatkichlar bo'yicha ichimlik suviga qo'yiladigan gigiyenik talablarni belgilovchi me'yorlardan vaqtinchalik chetga chiqishga mintaqaning tegishli Sanitariya-epidemiologiya xizmati markazlari qaroriga binoan ruxsat berilishi mumkin. Bunday holat faqatgina bu chetga chiqishlar obyektiv tabiiy sharoitlar yoki favqulodda vaziyatlar tufayli zarur bo'lsa va aholi salomatligiga zarar yetkazmasligi aniq bo'lsagina amalga oshiriladi. Gigiyenik me'yorlardan ruxsat etilgan vaqtinchalik chekinishlar to'g'risidagi ma'lumotlar mintaqa aholisiga albatta yetkazilishi shart.

2.4. Ichimlik suvi sifatini nazorat qilish usullarini belgilovchi xalqaro standartlarni qo'llashga aniqlanayotgan konsentratsiyalar oralig'i REM me'yorlariga (sezuvchanlik chegarasi 0,3 REM) mos kelishi va o'tkazilayotgan tahlillar xatoligi me'yorlariga rioya qilinishi sharti bilan yo'l qo'yiladi.

2.5. Suv tayyorlash texnologik jarayonini nazorat qilish uchun suv ta'minoti korxonalari qo'shimcha ko'rsatkichlarni (ishqoriylik, elektr o'tkazuvchanlik va boshqalar) qo'llashlari mumkin. Bu ko'rsatkichlar texnologik jarayonlarni o'z vaqtida tuzatish, reagentlar sarfini tartibga solish imkonini beradi. Bunda suvni tozalash va zararsizlantirishning talab qilinadigan to'liqligi hamda ishlab chiqarilayotgan ichimlik suvining belgilangan gigiyenik talablarga muvofiqligi majburiy ravishda ta'minlanishi lozim.

2.6. Ichimlik suvi manbaining kimyoviy moddalar bilan ifloslanganligiga shubha tug'ilganda, ularni aniqlashning mavjud va sezgir usullari bo'lmasa, yordamchi integral test (ko'rsatkich) sifatida infuzoriyalar yoki dafniyalar uchun zaharlilik indeksi bo'yicha ichimlik suvini biotestlash tavsiya etiladi. Bu indeks suvni xlorantirgandan so'ng quyidagi nisbatda ifodalangan 50% dan oshmasligi kerak:

$$T = \frac{V_k - V_0}{V_k} \times 100\%,$$

bunda:

V_k - nazorat namunasi uchun test-reaksiya qiymati,

V_0 - tekshirilayotgan namuna uchun test-reaksiya qiymati.

2.7. Suvda toksikologik zararlilik belgisi bo'yicha me'yorlanadigan va 1 hamda 2-xavflilik sinfiga mansub bo'lgan (radioaktiv komponentlardan tashqari) bir nechta kimyoviy moddalar aniqlanganda, pestitsidlar (FOS, XOS, karbamatlar guruhlari bo'yicha alohida), trigalometanlar, nitratlar va nitritlar kabi moddalar guruhlari uchun suv sifatini baholashning quyidagi formula bo'yicha hisoblangan kompleks ko'rsatkichlaridan foydalaniladi:

$$\frac{C_{1\phi a\kappa m}}{PDK_1} + \frac{C_{2\phi a\kappa m}}{PDK_2} + \frac{C_{n\phi a\kappa m}}{PDK_n} = 1,$$

bunda:

S_1, S_2, S_n - 1 va 2-xavflilik sinfidagi muayyan kimyoviy birikmalarning konsentratsiyalari;

REM_1, REM_2, REM_n - ushbu moddalarning suvdagi ruxsat etilgan maksimal konsentratsiyalari.

1-jadval

Suv sifati ko'rsatkichlari me'yorlari va ularni nazorat qilish usullari

Ko'rsatkichlar yoki komponentlar	O'lchov birliklari	Me'yorlar	Nazorat usullari
1	2	3	4
1. Mikrobiologik ko'rsatkichlar			
1.1. Umumiy mikroblar soni	1 ml dagi mikroblar soni	100 dan ko'p emas 1)	GOST 18963-73 ISO 8360/1-2-88
1.2. BGKP SONI (koli-indeks)	1000 ml dagi BGKP soni	3 dan ko'p emas 1) 2) 4)	GOST 18963-73 ISO 9308/1-2-90
1.3. Esherixiyalar (yangi fekal ifloslanish ko'rsatkichlari)	300 ml dagi esherixiyalar soni	yo'q 3) 4)	GOST 18963-73 ISO 9308/1-2-90
1.4. Kolifaglar	200 ml suvdagi BOE miqdori	yo'qligi 4)7)	O'zR SSV tomonidan tasdiqlangan uslubiy ko'rsatmalar
2. Parazitologik ko'rsatkichlar			
2.1. Patogen ichak sodda hayvonlari (lyambliya sistalari, dizenteriya amyobasi va boshqalar)	25 litr suvdagi sistalar soni	yo'qligi 7)	O'zR SSV tomonidan tasdiqlangan uslubiy ko'rsatmalar
2.2. Gelmint tuxumlari	25 litr suvdagi tuxum va lichinkalar soni	yo'qligi 7)	xuddi shu
3. Toksikologik ko'rsatkichlar (komponentlarning RHCK)			
a) Noorganik komponentlar			
3.1. Alyuminiy 5)	mg/l	0,2(0,5) ^x	GOST 18165-89
3.2. Berilliy	mg/l	0,0002	GOST 18294-81
3.3. Bor	mg/l	0,5	ISO 9390-90
3.4. Kadmiy	mg/l	0,001	
3.5. Molibden	mg/l	0,25	
3.6. Mishyak	mg/l	0,05	
3.7. Nikel	mg/l	0,1	
3.8. Nitratlar	mg/l	45	
3.9. Nitritlar	mg/l	3	
3.10. Simob	mg/l	0,0005	
3.11. Qo'rg'oshin	mg/l	0,03	

3.12. Selen	mg/l	0,01	
3.13. Stronsiy	mg/l	7,0	
3.14. Ftor	mg/l	0,7	
3.15. Xrom	mg/l	0,05	
b) Organik komponentlar			
3.16. Benzol	mkg/l	10,0	O'zR SSV tomonidan tasdiqlangan uslubiy ko'rsatmalar
3.17. Benz[a]piren	mkg/l	0,01	xuddi shu
3.18. Poliakrilamid	mg/l	2,0	GOST 19355-85
3.19. Pestitsidlar 6)	mg/l	RHCK bo'yicha	O'zR SSV tomonidan tasdiqlangan uslubiy ko'rsatmalar
4. Suvning organoleptik xususiyatlariga ta'siri bo'yicha me'yorlanadigan komponentlarning organoleptik ko'rsatkichlari va RHCK			
4.1. Ta'm	ball	2	GOST 3351-74
4.2. Hid	ball	2	xuddi shu
4.3. Loyqalik	mg/l	1,5/2,0 ^{xx}	xuddi shu
4.4. Rangdorlik	daraja	20/25 ^{xxx}	xuddi shu
4.5. Vodorod ko'rsatkichi	pH	6-9	pH-metr bilan o'lchanadi
4.6. Umumiy minerallashuv (quruq qoldiq)	mg/l	1000/1500 ^{xxxx}	GOST 18164-72
4.7. Temir	mg/l	0,3/1,0 ^{xxxx}	GOST 4011-72
4.8. Umumiy qattqlik	mg-ekv/l	7/10 ^{xxxx}	GOST 4151-72
4.9. Marganets	mg/l	0,1	GOST 4974-72
4.10. Mis	mg/l	1,0	GOST 4388-72
4.11. Polifosfatlar	mg/l	3,5	GOST 18309-72
4.12. Sulfatlar	mg/l	400/500 ^{xxxx}	GOST 4389-72
4.13. Xloridlar	mg/l	250/350 ^{xxxx}	GOST 4245-72
4.14. Rux	mg/l	3,0	GOST 18293-72
4.15. SPAV (PAV)	mg/l	0,5	ISO 7875/1-2-84
4.16. Fenol	mg/l	0,001/0,1 ^{xxxxx}	ISO 6439-90
4.17. Neft mahsulotlari	mg/l	0,1	O'zR SSV tomonidan tasdiqlangan uslubiy ko'rsatmalar
5. Radioaktiv ifloslanish ko'rsatkichlari			
5.1. Umumiy alfa-radioaktivlik	Bk/l	0,1	ISO 9696-92
5.2. Umumiy beta-radioaktivlik	Bk/l	0,1	ISO 9697-92

5.1 va 5.2 ko'rsatkichlarining belgilangan qiymatlari oshib ketgan taqdirda, O'zR SanQvaN «Radiatsion xavfsizlik sanitariya normalari va qoidalari»ning 7.13-

bandiga muvofiq ifloslanishlarning radionuklid tarkibi quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha qo'shimcha nazorat qilinadi: uran-238, radiy-226, radon-222, stronsiy-90

1-jadvalga izoh (mikrobiologik ko'rsatkichlar):

1. Toshqinlar davrida va noqulay tabiiy hodisalarda me'yoriy ko'rsatkichlardan chetga chiqishga yo'l qo'yiladi, biroq yil davomida 1 ml dagi UMCH va koli-indeks bo'yicha namunalarning 5% dan ortig'i bo'lmasligi kerak.

2. Agar koli-indeks 3 dan yuqori bo'lsa, o'sgan koloniyalarni aniqlash bosqichida qo'shimcha ravishda ichak tayoqchalari ham tekshiriladi. Koli-indeks 20 dan yuqori bo'lganda, ichak tayoqchalari aniqlanishidan qat'i nazar, ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha tahlil uchun suv qayta olinadi.

3. Yangi najas ifloslanishi aniqlanganda, ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha tahlil uchun suv namunalari qayta olinadi.

4. Aholining kasallanish holatlari yoki sanitariya-indikator nazorati natijalari bo'yicha aniqlanadigan epidemik ko'rsatkichlarga ko'ra (koli-indeks 20 dan yuqori yoki esherixiyalar mavjudligi, yoxud ketma-ket olingan 2 ta namunada kolifaglar borligi), DSENM organlarining qaroriga binoan suvda bakterial va virusli yuqumli kasalliklar qo'zg'atuvchilari mavjudligini aniqlash uchun tadqiqotlar o'tkaziladi. Buning uchun tegishli tekshiruvlarni o'tkazishga akkreditatsiyadan o'tgan ixtisoslashtirilgan laboratoriyalar jalb etiladi.

5. Suvni tozalash jarayonida O'zR SSV tomonidan xo'jalik-ichimlik suvi ta'minotida qo'llashga ruxsat etilgan boshqa koagulyantlar ishlatilganda, ularning ichimlik suvidagi qoldiq miqdorlari tegishli me'yoriy ko'rsatkichlar va aniqlash usullarini inobatga olgan holda nazorat qilinadi.

6. Ichimlik suvida aniqlanadigan pestitsidlar ro'yxati O'zR SanQvaM ning «Atrof-muhit obyektlari va oziq-ovqat mahsulotlarida pestitsidlarning gigiyenik normativlari» talablariga muvofiq, respublikaning turli hududlaridagi aniq vaziyatni hisobga olgan holda DSENM organlari tomonidan tuziladi.

7. Faqat yer usti suv manbalaridan olingan suv quvurlarida aniqlanadi.

Jadvalda qavs ichida ko'rsatilgan qiymatlarga yo'l qo'yiladi:

^x – tarkibida alyuminiy bo'lgan reagentlar bilan suvga ishlov berilganda;

^{xx} – suvni zararsizlantirishning ishonchliligi kafolatlanganda;

^{xxx} – yuqori rangli suvlarga ishlov berishda va suvni xlor bilan zararsizlantirganda trigalometanlarni majburiy nazorat qilish sharti bilan;

^{xxxx} – maxsus ishlov berilmagan suv quvurlari uchun;

^{xxxxx} – suv xlorlanmaganda.

3. AHOLINI XO'JALIK-ICHIMLIK SUVI BILAN TA'MINLASHNING MARKAZLASHTIRILGAN TIZIMLARI SUVI SIFATINI NAZORAT QILISH

3.1. Vodoprovod suvining sifatini nazorat qilish O‘zDST 950:2000 «Ichimlik suvi. Gigiyenik talablar va sifat nazorati» talablariga muvofiq, 1-jadvalda keltirilgan ko‘rsatkichlar bo‘yicha, ularni aniqlashning standartda ko‘rsatilgan usullaridan foydalangan holda o‘tkaziladi. Ushbu me‘yorlarga sanitariya-gigiyena nuqtai nazaridan eng muhim bo‘lgan suv sifati ko‘rsatkichlari kiritilgan: mikrobiologik, parazitologik, toksikologik (komponentlarning ruxsat etilgan miqdori), organoleptik va radioaktiv ifloslanish ko‘rsatkichlari.

3.2. Ichimlik suvi sifatini davlat sanitariya nazorati funksiyalarini bajarish doirasida nazorat qilishni O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidagi Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlarining hududiy laboratoriyalari amalga oshiradi.

Xo‘jalik-ichimlik suv ta‘minotining markazlashtirilgan tizimlarida suv sifatining ishlab chiqarish nazoratini suv ta‘mini korxonalarining belgilangan tartibda attestatsiyadan o‘tgan (akkreditatsiya qilingan) obyekt va markaziy (tayanch) laboratoriyalari olib boradi.

Suv tayyorlash jarayonining turli bosqichlarida suv sifatining texnologik nazorati Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati organlari bilan kelishilgan jadvallar asosida texnologik reglamentga muvofiq amalga oshiriladi.

3.3. Suv sifatini nazorat qilish va uning belgilangan talablarga muvofiqligini baholash suv ta‘mini manbalaridan suv olish joylarida, suv quvurlarining taqsimlash tarmog‘iga kirishidan oldin va taqsimlash suv quvurlari tarmog‘ining turli nuqtalarida amalga oshiriladi. Namuna olish nuqtalarining joylashuvi Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati organlari bilan kelishib olinadi.

3.4 Taqsimlash tarmog‘idan suv namunalarini olish asosiy magistral liniyalardagi ko‘cha suv olish qurilmalaridan, tarmoqning boshi berk va eng baland qismlaridan amalga oshiriladi; bunda suv namunalarini olish, konservalash, saqlash va tashish amaldagi standartlarga muvofiq bajariladi.

3.5. Suv sifatini nazorat qilishda o‘tkaziladigan tahlillarning tarkibiga qarab, quyidagi nazorat turlari belgilangan (1-ilova va 2-ilovaga qarang):

qisqartirilgan nazorat: asosiy mikrobiologik ko‘rsatkichlar (umumiy mikroblar soni va koli-indeksi), hid, ta‘m, rang, loyqalik, suvning fizik-kimyoviy xususiyatlari (pH, permanganat oksidlanishi, fito- va zooplankton)ni aniqlashni o‘z ichiga oladi;

umumiy fizik-kimyoviy nazorat: mishyak, nitritlar, nitratlar, qo‘rg‘oshin, ftor, quruq qoldiq, temir, qattiqlik, marganes, mis, polifosfatlar, sulfatlar, xloridlar, yuzaki faol moddalar va neft mahsulotlarini aniqlashni o‘z ichiga oladi;

maxsus virusologik va parazitologik nazorat: kolifaglar, patogen sodda organizmlar, gelmint tuxumlarini aniqlashni o‘z ichiga oladi;

o'ta xavfli zaharli moddalarni, jumladan kanserogen ta'sirga ega bo'lgan, past konsentratsiyalarda ham zaharli ta'sir ko'rsatadigan, aniqlash va tahlil qilish uchun murakkab uskunalar hamda yuqori malakali mutaxassislar (pestitsidlar, politsiklik aromatik uglevodorodlar, uchuvchi galogenli birikmalar, simob, sianidlar va boshqalar) talab qilinadigan moddalarni aniqlashni o'z ichiga olgan maxsus toksikologik nazorat;

umumiy hajmiy alfa va beta-faollikni, zarur hollarda esa ifloslanishlarning radionuklid tarkibini aniqlashni o'z ichiga olgan maxsus radiatsion nazorat;

suv tarqatish tarmog'iga yuborilishidan oldin undagi qoldiq alyuminiy, qoldiq xlor va ozon, ftor, marganes, temir va xloridlar miqdorini nazorat qilish.

3.6. Suv ta'minoti manbasidagi suvni tahlil qilish natijalari bo'yicha unda ayrim ifloslantiruvchi moddalar yo'qligi haqida ishonchli ma'lumotlar mavjud bo'lganda, respublikaning tegishli hududidagi Bosh davlat sanitariya vrachi bilan kelishilgan holda, bu moddalarni doimiy nazorat qilinadigan ko'rsatkichlar ro'yxatidan vaqtincha (1 yildan 3 yilgacha muddatga) chiqarishga ruxsat beriladi.

3.7. Suv olish joylarida suv ta'minoti manbalari suvining sifatini nazorat qilish O'zDST 951:2000 «Markazlashtirilgan xo'jalik-ichimlik suv ta'minoti manbalari» talablarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bunda nazorat qilinadigan ko'rsatkichlar ro'yxati suv ta'minoti manbaining turi va sinfini, mahalliy tabiiy va sanitariya sharoitlarini hisobga olgan holda, 1-ilovada keltirilgan tavsiyalarga asosan belgilanadi.

Suvni taqsimlovchi suv quvurlari tarmog'iga yetkazib berishdan oldin uning sifatini nazorat qilish 2-ilovada keltirilgan tahlillarning turi, tarkibi va o'tkazilish davriyligi bo'yicha tavsiyalarga muvofiq amalga oshiriladi.

Taqsimlovchi suv quvurlari tarmog'ida ichimlik suvi sifatini nazorat qilish qisqartirilgan nazorat ko'rsatkichlari bo'yicha o'tkaziladi. Nazoratning qo'shimcha turlari Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati organlarining ko'rsatmasi bo'yicha yoki suv ta'minoti korxonasining tashabbusi bilan bunga asoslar mavjud bo'lganda (suv sifatining yomonlashuvi, tarmoqning nosoz holati, suv yetkazib berishdagi uzilishlar, aholi salomatligining yomonlashuvi haqidagi shikoyatlar) o'tkaziladi. Suv ta'minoti tarmog'idan tahlil uchun olinadigan namunalarning umumiy soni xizmat ko'rsatiladigan aholi soniga muvofiq, 2-jadvalda keltirilgan me'yorlarni hisobga olgan holda belgilanadi.

Tarqatuvchi tarmoqdagi suv tahlillarining davriyligi

Xizmat ko'rsatiladigan aholi soni, ming kishi	Suv quvurlari tarmog'idan bir oyda olinadigan namunalarning eng kam miqdori
10 gacha	2
10-20	10
20-50	30
50-100	100
100 dan ortiq	200

3.8. Suv ta'minoti tizimlarida suvni xlor va ozon bilan zararsizlantirishni nazorat qilishda, suv ta'minoti manbayi turidan qat'i nazar, ularning suvdagi qoldiq konsentratsiyalari tarqatuvchi taqsimlovchi suv tarmog'iga kirishdan oldin har soatda kamida bir marta aniqlanadi. Bunda rezervuarlardan keyingi suvdagi erkin qoldiq xlor miqdori 30 daqiqalik aloqada 0,2-0,5 mg/l oralig'ida bo'lishiga yo'l qo'yiladi (GOST 18190-72 bo'yicha). Ichimlik suvini aminlashtirishda bog'langan xlor miqdori 0,8-1,2 mg/l oralig'ida bo'lishi lozim. Aralashtirish kamerasidan keyin 12 daqiqalik aloqada qoldiq ozon miqdori 0,1-0,3 mg/l oralig'ida bo'lishi kerak. Zarurat tug'ilganda, aloqa vaqti tajriba yo'li bilan, suvning muayyan sifatiga va uning mikroblar bilan ifloslanish darajasiga nisbatan, erkin qoldiq xlor yoki ozon konsentratsiyasining (S) ishlov berilayotgan suvning mikroblar va parazitlar bilan ifloslanishining turli xillarini to'liq faolsizlantirish uchun zarur bo'lgan vaqt (T) bilan bog'liqligini aks ettiruvchi ST ko'rsatkichi asosida aniqlanadi.

3.9. Tarqatuvchi tarmoqdagi suvda ruxsat etilgan me'yorlardan ortiq mikroblar ifloslanish aniqlanganda, qayta namuna olish va ularni ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha tekshirish zarur.

Koli-indeks 20 dan yuqori bo'lganda, ketma-ket tanlangan ikkita namunada Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati organlarining qaroriga ko'ra, patogen enterobakteriyalar mavjudligi, kolifaglar aniqlanganda esa enteroviruslar mavjudligi tekshiriladi. Bunday hollarda va epidemiologik ma'lumotlarni inobatga olgan holda, ichimlik suvida gepatit A virusi antigeni mavjudligini hamda tarqatish tarmog'idagi ichimlik suvda mineral azot saqlovchi moddalar va xloridlar miqdorini aniqlash tavsiya etilishi mumkin.

3.10. Respublikaning hududiy DSENMLari tomonidan o'tkaziladigan suv namunalari tahlillarining davriyligi va turlari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining maxsus yo'riqnomalari va buyruqlari bilan belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ichimlik suvi sifatini nazorat qilishning maxsus rejaları va jadvallari asosida aniqlanadi.

1-ilova (tavsiya etiladi)

Suv olish joylarida suv ta'minoti manbalari sifatini nazorat qilishda o'tkaziladigan tahlillarning turlari, mazmuni va davriyligi

Tahlil turlari va mazmuni	Namunalar olish va suv sifati tahlillarini oʻtkazish davriyligi (bir yil davomida tahlillar soni)									
	yer osti manbalari					yer usti manbalari				
	mazkur suv olish inshootidan ichimlik suvi bilan taʼminlanadigan aholi soni (ming kishi)									
	10 gacha	10 - 20	20 - 50	50 - 100	100	10 gacha	10 - 20	20 - 50	50 - 100	100
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
Qisqartirilgan (Q)	12	12	24	52	90	52	90	180	380	380
Umumiy fizik-kimyoviy (UFK)	2	4	6	6	12	6	6	12	12	24
Maxsus virusologik va parazitologik (MVP)	DSENM viloyat markazlarining koʻrsatmasi boʻyicha					Epidemiologik koʻrsatkichlarga koʻra suvni enteroviruslar, gepatit A virusi, vabo va NAG vibrionlariga tekshirish				
						3	3	6	6	12
Maxsus toksikologik (MT)	1	2	3	3	6	3	3	6	6	12
Maxsus radiatsion (MR)	Davriylik mahalliy maʼmuriyat qaroriga binoan radiatsion vaziyatni inobatga olgan holda, ammo yiliga kamida bir marta belgilanadi									

2-ilova (tavsiya etiladi)

Markazlashtirilgan suv ta'minoti tizimlarida ichimlik suvining tarqatish suv quvuri tarmog'iga kirishidan oldin sifatini nazorat qilishda tahlillar o'tkazish turlari, mazmuni va davriyligi

Tahlil turlari va mazmuni	Namunalar olish va suv sifatini tahlil qilish davriyligi (bir yil davomida tahlillar soni)									
	yer osti manbalari					yer usti manbalari				
	mazkur suv olish inshootidan ichimlik suvi bilan ta'minlanadigan aholi soni (ming kishi)									
	10 gacha	10- 20	20- 50	50- 100	100	10 gacha	10- 20	20- 50	50- 100	100
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
Qisqartirilgan (Q)	12	12	24	24	52	52	90	120	180	380- 720
Qoldiq alyuminiy, qoldiq xlor, qoldiq ozon, ftor, marganes, temir, xloridlar	Suvni xlorlash yoʻli bilan zararsizlantirishda qoldiq xlor miqdorini nazorat qilish - har soatda. Qoldiq ozon miqdorini nazorat qilish - har soatda. Suv tayyorlash jarayonida suvga qoʻshiladigan boshqa komponentlar tarkibini nazorat qilish - sutkada kamida 2 marta									
Umumiy fizik-kimyoviy (UFK)	2	4	6	6	12	6	6	12	12	24
Maxsus virusologik va parazitologik (MVP)	DSENM viloyat markazlari koʻrsatmasiga binoan					3	3	3	6	12
Maxsus toksikologik (MT)	1	2	3	3	6	3	3	6	6	12
	Suvni xlor bilan zararsizlantirganda xlorlangan uglevodorodlar (masalan, xloroform) miqdorini nazorat qilish chastotasi 2-3 baravar oshiriladi.									
Maxsus radiatsion (MR)	Davriylik mahalliy maʼmuriyat qaroriga koʻra radiatsiyaviy vaziyatni hisobga olgan holda belgilanadi, ammo yiliga kamida bir marta oʻtkazilishi shart.									